O‘QUVCHI YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Raupova Munira Murodovna
Navoiy davlat pedagogika instituti , Pedagogika va psixologiya kafedrasi p.f.n.,dosent
Jumanova Hafiza Xoliqulovna
tayanch doktorant(phd)

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi, yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, davlat, axloq, yoshlar, tarbiya, yoshlar tarbiyasi, huquqiy tarbiya.

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida aholi turmush farovonligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda.Ta’kidlash lozimki,yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va barkamol avlodni tarbiyalash islohotlar tizimida markaziy o‘rinni egallamoqda. O‘zbekistonda Bola huquqlari bo‘yicha 100 dan ziyod qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Eng muhimi, mamlakatimizda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks huquqiy asoslar yaratildi. Ayniqsa, 2008 yil 8 yanvarda amalga kiritilgan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekistonda bola huquqlariga oid birinchi tarixiy hujjat bo‘ldi.

Mazkur Qonunning qabul qilinishi, birinchidan, bola huquqlariga oid qonun hujjatlarining kodifikatsiya qilinishiga zamin yaratishga, ikkinchidan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida belgilangan bola huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro standartlarga milliy qonunchilikning mosligini ta’minlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, bola huquqlarini himoya qilish mexanizmining oshkora va samarali bo‘lishi uchun bola huquqlari himoya qilinishining aniq kafolatlarini belgilab olishga imkoniyat berdi.

Umuman aytganda, bugungi kunda O‘zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘ziga xos milliy-huquqiy tizim shakllangan bo‘lib, ayni paytda mamlakatimiz bu yo‘lda dadil qadam tashlayotgan davlatlardan biridir. Nima uchun O‘zbekistonda Bola huquqlariga katta e’tibor qaratilishini quyidagilar bilan izohlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi aholisining 40% ni 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi, 64%ni esa – 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar. Shu sababli, inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko‘p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Mamlakatimizda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi yaratilgan. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur.

Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi — yosh avlodga puxta

ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda barkamol avlodni huquqiy jihatdan komil qilib tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi.Zero, huquqiy jihatdan barkamol avlodgina qonuniylikni ta’minlash va shu tariqa mamlakat ravnaqi uchun hissa qo‘shishga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘ladi.Jamiyat siyosiy hayotida huquqiy savodxonlikni o‘rni beqiyos.O‘zbekistonda bu muammo ta’lim tizimi va jamiyatda yuzaga kelgan imkoniyatlar orqali izchil amalga oshirib kelinmoqda.Bu mamlakatimizda 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda ham o‘z ifodasini topgan.Unda qo‘yilgan vazifalarga erishish, yoshlarning jamiyatdagi maqomini yanada to‘laqonli qilish, ijtimoiy himoyalash, ma’naviy, aqliy, mehnat, innovatsion salohiyatini faollashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Huquqiy madaniyatni shakllantirish aynan yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan.Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadi qo‘yiladiBolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston,
2. 2016 y. 2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun. –Toshkent: 2016 y.
3. Quvondiqov I.Huquqiy ma’daniyat va milliy g‘oya. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011 y.